

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGLARNING KASBIY INTELLEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION-RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF TEACHERS' PROFESSIONAL INTELLECTUAL COMPETENCES BASED ON THE ACMEOLOGICAL APPROACH

BOLTAYEVA QAMBAR ABDULLAYEVNA

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, O'zbekiston

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada akmeologik yondashuvga asoslangan innovatsion-raqamli platformalar hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining pedagoglar kasbiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi roli va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda onlayn ta'lim resurslaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirish hamda zamonaviy ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy o'sishini ta'minlash yo'llari ochib berilgan. Bugungi kunda dunyo miqyosida pedagoglarning metodik mahoratini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotganini inobatga olgan holda, maqolada Blooket, Gimkit, Quizizz, Quizlet, Kahoot, Jamboard va Mentimeter kabi raqamli platformalarni interfaol ta'lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari hamda ularning o'qituvchi faoliyatidagi pedagogik imkoniyatlari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: akmeologik yondashuv, blooket, gimkit, quizizz, quizlet.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются современные формы инновационных цифровых платформ и технологий, основанных на акмеологическом подходе, а также их роль в развитии профессионального и интеллектуального потенциала педагогов. В исследовании раскрываются пути достижения профессионального роста учителей в современном образовании и повышения эффективности обучения на основе использования онлайн-платформ. Учитывая, что сегодня во всем мире особое внимание уделяется совершенствованию методических навыков преподавателей, в статье подробно рассматриваются возможности внедрения в интерактивный образовательный процесс таких цифровых ресурсов, как Blooket, Gimkit, Quizizz, Quizlet, Kahoot, Jamboard и Mentimeter, и их педагогический потенциал.

Ключевые слова: акмеологический подход, Blooket, Gimkit, Quizizz, Quizlet.

ABSTRACT. This article analyzes modern forms of innovative digital platforms and technologies based on the acmeological approach, exploring their direct role in developing the professional and intellectual potential of educators. The study reveals effective pathways for achieving teachers' professional growth in modern education and increasing lesson efficiency through the utilization of online educational platforms. Considering the global focus on enhancing teachers' methodological skills, the article details the mechanisms of integrating digital resources such as Blooket, Gimkit, Quizizz, Quizlet, Kahoot, Jamboard, and Mentimeter into the interactive learning process, highlighting their pedagogical capabilities.

Keywords: acmeological approach, blooket, gimkit, quizizz, quizlet.

Kirish. Zamon shiddat bilan o'zgarmoqda, har bir soniyada yangidan yangi kashfiyotlar ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat o'quvchilarning bilim olish ko'nikmalarini, balki pedagoglarning ham kasbiy intellektual salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, akmeologik yondashuv asosida pedagogik salohiyatni rivojlantirish jarayonida innovatsion texnologiyalar samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv, ta'lim oluvchilarning bilimlarini mustahkamlash, analitik fikrlashni rivojlantirish, tanqidiy tafakkurga asoslanish va ularni o'zlashtirgan bilimlar asosida mustaqil, ijodiy ishlash qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqotda pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishda innovatsion-raqamli texnologiyalarning o'рни va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan nazariy hamda amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini akmeologik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari hamda ta'limni raqamlashtirish konsepsiyalari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning akmeologiya, pedagogik mahorat hamda raqamli ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy ishlari tahlil qilindi. Mavzuga oid manbalarni o'rganishda tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi.

Shuningdek, pedagoglarning kasbiy faoliyatida Blooket, Gimkit, Quizizz, Quizlet, Kahoot, Jamboard va Mentimeter kabi raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi hamda ularning

ta'lim jarayonidagi samaradorligi akmeologik yondashuv nuqtai nazaridan baholandi. Mazkur platformalarning pedagoglarning metodik mahorati, raqamli kompetensiyasi, refleksiv faoliyati va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga ta'siri tavsifiy tahlil asosida yoritildi.


Tadqiqotda kuzatish, pedagogik tajribalarni o'rganish, taqqoslash va interpretatsiya metodlaridan ham foydalanildi. Olingan natijalar asosida innovatsion-raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Akmeologiya — bu inson rivojlanishining eng yuqori cho'qqilarini o'rganishga qaratilgan fan bo'lib, yunoncha “akme” — cho'qqi, eng yuqori bosqich, gullagan, eng yaxshi davr degan ma'noni anglatadi, hamda ilmiy atamashunoslikga 1928-yilda N.A.Ribnikov tomonidan kiritilgan bo'lib, bu yosh davrlari psixologiyasining yetuklik davrini nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir shaxs, xususan pedagog, o'z kasbiy faoliyatida maksimal yutuqlarga erishish salohiyatiga ega. Bu salohiyatga esa tinimsiz izlanish, kasbiy mahoratni oshirish, yangidan yangi metodlarni yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyadan o'rinli foydalanish orqali erishiladi.

Akmeologik yondashuv asosida pedagog quyidagi bosqichlarni bosib o'tadi:

- Faoliyatga kirishish (boshlang'ich kasbiy qiziqish);
- O'sish (metodik malakalarni egallash, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish);
- Pishib yetilish (kasbiy yetuklik);
- Akme (eng yuqori bosqich – kasbiy mahorat cho'qqisi).

1. Pedagogning kasbiy-intellektual salohiyati tushunchasi. Akmeologiya ning predmeti kasbiy yuksalish, o'qituvchilarning



ijodiy salohiyati shuningdek kelajakdagi murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirishga, ularning faoliyatini takomillashtirishga va tuzatishga yordam beradigan subyektiv va obyektiv omillardir. Obyektiv omillar olingan ta'lim sifatini o'z ichiga olsa, subyektiv omillarga insonning mahorati va qobiliyati, uning ma'suliyati, kompetensiyasi, muammolarni samarali hal qilish ko'nikmasi kiradi.

Kasbiy-intellektual salohiyat — bu pedagogning o'z kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni hal qilishi, tahlil qilishi, zamonaviy metodlarni qo'llay olishi, ilmiy va texnologik bilimlarga asoslangan darslar tashkil etishi, ta'lim muhitini boshqarish qobiliyatidir. Bu qobiliyat quyidagilarni o'z ichiga oladi: bilimlar, ko'nikmalar, shaxsiy fazilatlar, texnologik savodxonlik.

2. Innovatsion texnologiyalar va ularning ijobiy ahamiyati. Zamonaviy raqamli texnologiyalar pedagoglarni kasbiy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Jumladan: AKT vositalari, onlayn ta'lim platformalar, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'limiy intellektual o'yinlar (blooket, gimkit, quizizz, quizlet, kahoot, jamboard) hamda o'quvchilarning kreativ fikrlarini jamlovchi mentimetr-onlayn platformasi.

Hozirgi kunda deyarli har bir maktablarda smart-board (aqlli doska)lar borligini inobatga olsak, har bir darsni onlayn

platformalar orqali tashkil etish qiyinchilik tug'dirmaydi. Bunda o'qituvchilar darslariga akmeologik yondashib, eng zamonaviy ta'limiy o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarni baholashga harakat qiladilar, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradilar, darsda yuqori samaradorlikka ega bo'ladilar. Bu texnologiyalar o'qituvchilarga:

- bilimlarni vizual va interaktiv tarzda taqdim etish;
- o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash;
- tezkor tahlil qilish va refleksiya yuritish;
- o'z ustida ishlash, yangi metodikalarni o'rganish imkonini beradi.

Shunday vositalardan eng keng tarqalganlari hamda o'qituvchilar o'z darslarida samarali foydalanib kelayotganlaridan ba'zilariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Blooket- gamifikatsiya asosida test va o'yinli savollar orqali o'rganishni rag'batlantiradi, hamda o'yinga asoslangan o'quv platformasi bo'lib, unda o'qituvchilar interaktiv o'yinlarni o'tkazish uchun oldindan tayyorlangan savollar to'plamini yaratishi yoki tanlashi mumkin. O'quvchilar savollarga o'z qurilmalari(telefon, planshet, notebook)da javob berishadi, ball to'plashadi va "Blooket" deb nomlangan virtual narsalarni ochishadi. "Blooket" turli xil o'yin rejimlarini taklif qiladi va jonli sinfdagi mashg'ulotlar uchun ham, mustaqil ta'lim uchun ham ishlatilishi mumkin. Pedagoglar o'z fanlariga

moslab mavzulashtirilgan savollar to'plamini tuzib, bilim darajasini tekshirish bilan birga o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishadi.

2. Gimkit- blooketga o'xshash interaktiv o'quv platformasi bo'lib, u viktorinalarni o'quvchilar uchun qiziqarli o'yin-shou tajribasiga aylantiradi. O'quvchilar savollarga o'z shaxsiy qurilmalari (telefon, planshet, notebook) da javob berib, o'yin ichidagi imtiyozlarga sarmoya kiritishda foydalanishlari mumkin bo'lgan virtual valyutani olish orqali raqobatlashadilar, hamda egallagan bilimlarini test orqali "daromad yig'ish" konsepti yordamida takrorlash jarayoni darsni qiziqarli qiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birga interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish orqali refleksiv tahlilni yo'lga qo'yadi. Bu platformadan ko'proq sinf ichida keng foydalaniladi, lekin mustaqil amaliyot uchun ham foydalanish mumkin.

3. Quizizz- real vaqt yoki mustaqil ishlash formatida o'tkaziladigan, o'qituvchilar uchun qiziqarli viktorinalar, interfaol darslar va boshqa o'quv mashg'ulotlarini yaratish va o'tkazish uchun onlayn platformadir. Statistik tahlil berish orqali o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasini kuzatadi va tahlil qiladi.

Bu platforma ham o'quvchilarga o'z qurilmalari yordamida yakka tartibda yoki guruhda viktorinalarda qatnashish imkonini beradi. Platforma turli xil savollar turlarini taklif etadi, jumladan, bir nechta tanlov, bo'sh joyni to'ldirish va ochiq savollar, tasvir, audio va video qo'shish imkoniyatlari ham bor. O'qituvchilar noldan o'yinli topshiriqlar yaratishlari yoki oldindan tayyorlangan viktorinalar majmuasidan foydalanishlari mumkin.

4. Quizlet- flashcards (kartochkalar) orqali tezkor o'rganish va takrorlash imkonini beradigan, o'yinga asoslangan o'quv faoliyati bo'lib, o'quvchilarga o'quv to'plamlari bilan

qiziqarli va interaktiv tarzda shug'ullanish imkonini beradi. U flesh-kartalarni viktorina-shou uslubidagi o'yinga aylantirib, hamkorlik va faollikni rivojlantiradi. O'yinchilar savollarga to'g'ri javob berish va ochko to'plash maqsadida individual yoki jamoa bo'lib o'ynashlari mumkin. Bu platformada ham o'qituvchi o'zining resurslarini yaratadi yoki mavjud elektron kutubxonadan foydalanadi.

5. Kahoot- o'yin shaklidagi so'rovlar va testlar. Bu platforma orqali o'qituvchi dars yakunida baholash yoki yangi mavzuni mustahkamlashda samarali ishlashi mumkin. O'qituvchilar va o'quvchilarga mavjud infratuzilmadan foydalangan holda raqobatbardosh bilim o'yinlari orqali o'zaro aloqada bo'lish imkonini beruvchi raqamli o'yinga asoslangan o'quvchilar javob tizimidir. Jonli "Kahoot"ni o'tkazish uchun savollar umumiy ekranda paydo bo'ladi (xonadagi katta ekran yoki mobil qurilmada), o'quvchilar esa o'z qurilmalari (telefon, planshet, notebook) orqali individual holda yoki guruh tarzida javob beradilar. Bu platforma egallagan bilimni tezkor tahlil qilib, to'g'ri javob berishga o'rgatadi.

6. Jamboard- google tomonidan ishlab chiqilgan, birgalikda aqliy hujum va vizualizatsiya uchun mo'ljallangan raqamli, interaktiv- virtual doska bo'lib, guruhli ishlarda va g'oyalarni vizual tarzda ifodalashda qo'llaniladi. U foydalanuvchilarga ruchkalar, yopishqoq eslatmalar va tasvirlar kabi turli xil vositalar yordamida real vaqtda hamkorlikni rag'batlantiradigan raqamli doska yaratish va almashish imkonini beradi. O'qituvchilar uni "collaborative" (hamkorlik) mashg'ulotlar uchun ishlatishi mumkin. Bu platforma "Docs", "Sheets" va "Slides" kabi boshqa "Google Workspace" ilovalari bilan yaxshi integratsiyalashgan.

7. Mentimeter - onlayn so'rovlar,

fikrlar olish, savol-javoblar o'tkazish vositasi. Refleksiya va interaktiv darslar uchun juda qulay. Mentimeter - real vaqtda o'quvchilarni jalb qilish orqali taqdimotlar va uchrashuvlarni o'zgartiradigan interaktiv taqdimot platformasi. Bu taqdimotchilarga interaktiv slaydlar, so'rovlar, viktorinalar va so'zlardan suzuvchi bulutlarni yaratishga imkon beradi, bu esa taqdimotlarni yanada qiziqarli qilib, ishtirokchilarni ko'proq jalb qiladi.

Muhokama va natijalar. Yangi O'zbekistonimiz maktablarida so'nggi yillarda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan: o'qituvchilar bilimini oshirishning onlayn platformalari, attestatsiya jarayoniga jalb qilinish, turli ta'lim muassasalarida o'qish uchun ariza topshirish, ishga joylashish uchun ariza topshirish, onlayn muhitda ishlashga tayyorgarlik, raqamli texnologiyalar markazlaridagi faoliyat, innovatsion texnologiyalarni o'qitish modullari. O'qituvchilar o'z darslariga akmeologik yondashuv asosida tayyorlanib, darsning istalgan bir qismida yuqorida

ko'rsatilgan onlayn raqamli platformalarning istalgan biridan foydalansa, bu yuqori samaradorlikka olib keladi.

Xulosa. Akmeologik yondashuv pedagog shaxsining eng yuqori kasbiy bosqichga erishishini maqsad qilib qo'yadi. Bunda intellektual salohiyat, o'z-o'zini anglash, doimiy rivojlanishga intilish asosiy mezonlardandir. Innovatsion texnologiyalar esa bu jarayonning vositasi sifatida pedagogga keng imkoniyatlar yaratadi. Pedagoglarning kasbiy intellektual salohiyatini oshirishda innovatsion texnologiyalar nafaqat vosita, balki rivojlanishning strategik yo'nalishidir. Akmeologik yondashuv asosida raqamli vositalardan foydalanish, o'qituvchilarning doimiy yangilanish, o'z ustida ishlash va kasbiy yetuklikka erishish yo'lidagi harakatlarini samarali qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa butun ta'lim tizimining sifat jihatdan yuksalishiga olib keladi. Kelgusida har bir o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi, raqamli savodxonligini oshirishi, akmeologik rivojlanishni maqsad qilib qo'yishi zarur. Faqat shundagina zamonaviy ta'limga mos pedagogik portret shakllanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Karimov M.M. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. — Toshkent: Ilm Ziya, 2021.
2. Qodirova M., Xolboyeva G. Pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati. — Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Axunjonov S. Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish. — Namangan: Innovatsiya, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son qarori, 2020-yil 6-noyabr.
5. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers (2021).
6. John Hattie. Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. — Routledge, 2012.